

AHOLI, XUSUSAN YOSHLAR HAYOTIDA MADANIYAT MARKAZLARINING O'RNINI OSHIRISHDA TURKIYA RESPUBLIKASI TAJRIBASI



Niyazbekov Jamshid Muxsin o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri
maslahatchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda madaniyat markazlari jamoat hayotida muhim ijtimoiy-madaniy maydon sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular aholi, xususan yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri, madaniy ehtiyojlari va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Ushbu maqolada turk madaniyat markazlari modeli, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, aholiga yaratilgan sharoitlar va ularning jamiyat rivojida o'rnini yoritiladi.

Kalit so'zlar: Aholi, yoshlar, hayot, madaniyat markazlari, ijtimoiy, taraqqiyot, Turkiya Respublikasi, tajriba, model.

Аннотация: Сегодня культурные центры проявляются как важное социокультурное пространство в общественной жизни. Они играют решающую роль в духовном мировоззрении, творческом мышлении, культурных потребностях и содержательной организации досуга населения, особенно молодежи. В данной статье рассматриваются модель турецких культурных центров, механизмы государственной поддержки, условия, созданные для населения, и их роль в развитии общества.

Ключевые слова: Население, молодежь, жизнь, культурные центры, социальные, развитие, Турецкая Республика, опыт, модель.

Abstract. Today, cultural centers are manifested as an important socio-cultural space in public life. They occupy a decisive place in the meaningful Organization of the spiritual worldview, creative thinking, cultural needs and leisure of the population, in particular young people. Today, cultural centers are manifested as an important socio-cultural space in public life. They occupy a decisive place in the meaningful Organization of the spiritual worldview, creative .

Keywords: Population, youth, life, cultural centers, social, development, Republic of Turkey, experience, model.

Kirish.

Bugungi kunda madaniyat markazlari jamoat hayotida muhim ijtimoiy-madaniy maydon sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular aholi, xususan yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri, madaniy ehtiyojlari va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida Turkiya madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish, aholi qatlamlarini madaniy jarayonlarga jalb qilish bo'yicha katta tajriba to'plagan.

Ushbu maqolada turk madaniyat markazlari modeli, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, aholiga yaratilgan sharoitlar va ularning jamiyat rivojida o'rnini yoritiladi.

Shuningdek, O'zbekiston uchun Turkiya tajribasidagi ijobiy tajribalarni joriy etishning muhim jihatlari tahlil etiladi.

Turkiya madaniyat va turizm vazirligi (Kültür ve Turizm Bakanlığı) madaniyat markazlari faoliyatini markazlashgan tarzda boshqaradi.

Mazkur tizimda madaniyat markazlari uchun yagona standartlar joriy etish, zamonaviy infrastrukturaga ega obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish, teatr, opera, balet, musiqa, san'at va xalq an'analariga oid faoliyatni rivojlantirish, aholining har bir qatlami uchun ochiq va bepul madaniy xizmatlarni tashkil etish vazifalarni qamrab oladi. Ushbu vazifalar Turkiya qonunchiligida (Kültür ve Turizm Bakanlığı Teskilat Kanuni) aniq belgilab qo'yilgan. Barcha davlat madaniyat markazlari yagona normativ-huquqiy asosda ishlaydi. Infratuzilma, texnik ta'minot, xizmat ko'rsatish darajasi, xodimlar malakasi, zallar funksiyasi, klub va studiyalar faoliyati bo'yicha standartlar qabul qilingan. Bu har bir viloyatdagi markazning sifat jihatdan bir xil darajada xizmat ko'rsatishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda Turkiyada yagona davlat madaniyat markazlari tarmog'i, munitsipal (beledie) madaniyat markazlari, xususiy va jamoat tashabbusidagi san'at markazlari faoliyat olib boradi.

Katta infratuzilmaga ega bo'lgan Davlat madaniyat markazlari tarkibiga quyidagi yirik obyektlar kiradi:

Atatürk Kültür Merkezi (AKM);

Prezident simfoniya orkestri markazi;

Milliy teatr va opera binolari;

Illar (viloyatlar) madaniyat markazlari;

Har bir binoda teatr zali, ko'rgazma galereyasi, bolalar ijodiy studiyalari, kutubxona, kovorking maydoni, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan multimedia xonalari mavjud bo'lib, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan.

Har yilgi davlat budjeti orqali ta'mir, rekonstruksiya, jihozlash, san'at loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun mablag' ajratiladi.

Turkiyada madaniy xizmatlar strategik yo'nalish sifatida moliyalashtiriladi, bu esa infratuzilmaning uzluksiz rivojlanishiga imkon beradi.

Munitsipal madaniyat markazlari Turkiya madaniy siyosatining eng ommaviy va aholiga yaqin bo'lgan qismi hisoblanib, mahalliy aholiga madaniy xizmatlar ko'rsatadi. Turkiyaning tuman va shaharlarida joylashgan munitsipal madaniyat markazlarida bepul ijodiy kurslar (rasm, musiqa, raqs, dizayn), teatr to'garaklari, xotin-qizlar markazlari, yoshlar kovorkinglari, kabi keng qamrovli xizmatlarni amalga oshiradi. Munitsipal madaniyat markazlari mahalliy budget mablag'laridan to'liq moliyalashtiriladi. Mazkur madaniyat markazlarini aholi ehtiyojlariga mos ravishda tarmoqlarga ajratish imkonini beradi. Masalan, ayrim tumanlarda "Xotin-qizlar madaniyat markazi", ayrimlarda "Yoshlar san'at markazi" kabi maxsus segmentlar tashkil etiladi.

Munitsipal madaniyat markazlarida asosan mahalliy ijodkorlar uchun ijodiy muhit yaratilgan bo'lib, asosan tasviriy-amaliy, folklor san'atiga doir hamda aholini maishiy turmush tarzini takomillashtirishga yo'naltirilgan kurslar faoliyat olib boradi.

Turkiyada madaniyat markazlari bozorida nodavlat sektor ham muhim o'ringa ega.

Jumladan, xususiy san'at galereyalari va studiyalar Istanbul, Ankara, Izmir kabi yirik shaharlarda faoliyat olib boradi. Xususiy madaniyat markazlarida aholi uchun art-studiyalar, zamonaviy san'at galereyalari, kino ijodxonalari, dizayn markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ular ko'proq zamonaviy san'at, art-installyatsiyalar, kino, raqamli dizayn va zamonaviy raqs yo'nalishlariga yo'naltirilgan. Turkiya madaniyat markazlari tarmog'i keng qamrovli strategik afzalliklarga ega. Davlat – munitsipal – xususiy madaniyat markazlari o'zaro bog'liq holda faoliyat

yuritadi. Bunda, madaniyat markazlari barcha aholi qatlamiga yetkaziladi, turli segmentlarda har xil madaniy xizmatlar mavjud bo'ladi, madaniy hayot mamlakatning keng hududlariga tarqaladi. Davlat budjeti, munitsipal budjetlar va xususiy sektor mablag'lari birgalikda madaniy infratuzilmani barqaror rivojlantirib boradi. Madaniyat markazlarining texnik jihozlanishi, raqamlashtirish, onlayn xizmatlar, multimedia platformalar rivojlanishi Turkiya aholisining madaniyat markazlariga tizimli tashrif buyurishini ta'minlamoqda.

Shuningdek, Turkiyadagi madaniyat markazlari yoshlarni, ijodiy, intellektual, innovatsion, madaniy-jamoaviy faollik tomon yo'naltiruvchi "ma'naviy rivojlanish maktabi"ga aylanmoqda.

Turkiya madaniyat markazlari tarmog'i — davlat, mahalliy hokimiyat va xususiy sektorning uzviy hamkorlikdagi muvaffaqiyatli modeli bo'lib, madaniy infratuzilmani barqaror rivojlantirish, aholini madaniy hayotga faol jalb etish va yoshlar salohiyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston uchun Turkiya tajribasining ayrim ijobiy natijalarini tizimli joriy etish mamlakatimiz yoshlarini madaniyat va san'atga jalb etish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Turkiyaning madaniyat markazlarini tashkil etish va boshqarishdagi amaliy tajribasi O'zbekistonda madaniyat-san'at sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, madaniyat markazlari faoliyatini yagona standartlar asosida rivojlantirish. Turkiyada madaniyat markazlari davlat tomonidan ishlab chiqilgan "Kültür Merkezleri Standartlari" asosida faoliyat yuritadi.

Bunday yondashuv har bir markazning moddiy-texnika bazasi, ijtimoiy xizmat turlari, infratuzilma, axborot xizmatlari va xavfsizlik talablarini yaxlit mezonlar asosida tashkil etishga imkon beradi. O'zbekistonda ham madaniyat markazlari uchun yagona standartlarni joriy etish orqali ularning teng rivojlanishi, sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyati va tizimli monitoringni ta'minlash mumkin.

Ikkinchidan, yoshlar uchun ijodiy, innovatsion va raqamli laboratoriyalarni kengaytirish. Turkiyada zamonaviy madaniyat markazlari yoshlar uchun art-studiyalar, teatr maktablari, media-laboratoriyalar, STEAM-markazlar, raqamli dizayn va kino ijodxonalari bilan jihozlangan bo'lib, ushbu jarayon yoshlarning ijodiy salohiyatini ochish, bo'sh vaqtini to'g'ri yo'naltirish va yangi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonda madaniyat markazlarini yoshlar innovatsion maskaniga aylantirish madaniy-ma'rifiy sohadagi faollikni bir necha barobar oshiradi va yangi ijodiy avlodni tayyorlaydi.

Uchinchidan, madaniyat markazlarini aholi uchun ochiq va ijtimoiy inklyuziv makonga aylantirish.

Turkiyada madaniyat markazlarining asosiy falsafasi barcha qatlamlar uchun ochiqligi, bepul yoki arzon xizmatlar bilan qamrab olinishi, jamoat xizmati sifatida faoliyat yuritishi hisoblanadi.

O'zbekistonda madaniyat markazlarining xalq bilan muloqot maydoniga aylanishi, bepul kurslar, klublar, ijodiy to'garaklar va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni ko'paytirish orqali aholining madaniy faolligi va madaniyat iste'moli oshadi.

To'rtinchidan, inklyuziv va qulay madaniy infratuzilmani rivojlantirish.

Turkiya madaniyat markazlarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus sharoitlar, panduslar, audio-gidlar, Brayl yozuvi, maxsus o'rinlar standart hisoblanadi.

O'zbekistonda inklyuziv madaniy infratuzilmani rivojlantirish jamiyatda tenglik va insonparvarlik tamoyillarini amalda namoyon etadi.

Beshinchidan, davlat va mahalliy hokimiyat hamkorligini kuchaytirish.

Turkiya tajribasida madaniyat markazlari davlat-munitsipal hamkorlik modeli asosida boshqariladi. Davlat infratuzilmani yaratadi, shahar hokimliklari esa uni faol va barqaror ishlatishni ta'minlaydi. O'zbekistonda ham markaziy davlat organlari, mahalliy hokimliklar, madaniyat bo'limlari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik madaniy siyosatning barqarorligi va samaradorligini bir necha barobar oshiradi. Turkiya madaniyat markazlari faoliyati madaniyatni jamiyat hayotining markaziga aylantirishning muvaffaqiyatli modeli hisoblanadi. Ushbu markazlar aholi, ayniqsa yoshlarning ijodiy salohiyatini yuksaltirish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, milliy va jahon san'ati bilan tanishish, ta'lim va madaniy integratsiya jarayonlarini kuchaytirishda beqiyos o'ringa ega.

O'zbekiston uchun Turkiya tajribasi ijobiy amaliy ahamiyatga ega bo'lib, madaniyat markazlarini zamonaviy va jamiyatga xizmat qiladigan kompleks madaniy-innovatsiya markazlariga aylantirishda tahliliy asos vazifasini o'taydi.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı. "Kuruluş ve Görevler." <https://www.ktb.gov.tr>
2. Kültür Merkezleri Daire Başkanlığı. "Teşkilat ve Görevleri." <https://yigm.ktb.gov.tr>
3. T.C. Resmî Gazete. "4848 sayılı Kültür ve Turizm Bakanlığı Teşkilat ve Görevleri Hakkında Kanun." <https://www.resmigazete.gov.tr>
4. Türkiye Cumhuriyeti Cumhurbaşkanlığı. "Atatürk Kültür Merkezi Projesi Rasman Taqdimoti." <https://www.tccb.gov.tr>
5. AKM İstanbul Resmî Saytı. <https://akmistanbul.gov.tr>
6. Türkiye Belediyeler Birliği. "Belediye Kültür Merkezleri Faaliyetleri." <https://tbb.gov.tr>
7. II. Ilmiy tadqiqotlar va tahliliy materiallar.
8. Yılmaz, A. (2020). Kültür Merkezlerinin Sosyal Yaşamdaki Rolü: Türkiye Örneği. Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
9. Demir, N. (2019). Türkiye'de Gençlik ve Kültür Politikaları: Belediyelerin Rolü. İstanbul Üniversitesi Yayınları.
10. Çetin, Ö. (2021). Kültürel Katılım, Kültür Politikaları ve Yerel Yönetimler. Journal of Cultural Policy Studies.
11. Şahin, F. (2018). Modern Kültür Merkezlerinde Mimari Yaklaşımlar ve Toplumsal İşlev. Mimar Sinan Güzel Sanatlar Üniversitesi.
12. Karaca, S. (2022). Kültür-Sanatın Yaygınlaştırılmasında Devlet ve Yerel Yönetim İşbirliği. Anadolu University Press.
13. III. Turkiyadagi madaniy infratuzilma va jamoat markazlariga oid manbalar.
14. İstanbul Büyükşehir Belediyesi. Kültür Merkezleri Tanıtım Kataloğu. <https://ibb.istanbul>
15. İzmir Belediyesi. Gençlik ve Kültür Merkezleri Faaliyet Raporu 2023. <https://izmir.bel.tr>
16. Ankara Büyükşehir Belediyesi. Kültür ve Sosyal İşler Dairesi Faaliyetleri. <https://ankara.bel.tr>
17. Yunus Emre Enstitüsü. Uluslararası Kültürel İlişkiler ve Diplomasi. <https://yee.org.tr>
18. IV. Xalqaro manbalar (solishtirma tahlil uchun).

19. UNESCO. (2021). Culture 2030 Indicators: Measuring Culture for Sustainable Development.
<https://unesco.org>
20. Council of Europe. (2020). Compendium of Cultural Policies and Trends.
<https://culturalpolicies.net>
21. OECD. (2019). Cultural Participation and Social Inclusion Report.
22. V. Internet manbalari va tahliliy maqolalar.
23. Daily Sabah. (2021). “Atatürk Cultural Center Reopens After Reconstruction.”
<https://www.dailysabah.com>
24. TRT Haber. “Türkiye’de Kültür Merkezlerinin Dönüşümü.”
<https://www.trthaber.com>
25. Aerial Travel. “Atatürk Cultural Center – Istanbul.” <https://aerial.travel>